<i>Yuldasheva Feruza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik shakllarni o'rgatish orqali nutqiy kompetentligini rivojlantirish ..	1681
<i>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Qodirova Mubinoxon Zuxriddin qizi</i>	
Ustoz-shogirdlik tizimida yosh o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mezonlari, darajalari .....	1684
<i>Abdulfattoxova Mavzunabegim Baxtiyorjon qizi</i>	
Периодизация процесса совершенствования воспитательной роли женщины в Центральной Азии .....	1688
<i>Саидова Барно Нарзуллаевна</i>	
Jinoyat protsessida tergov organi rahbari tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari .....	1693
<i>Shohruh Xalilov</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarni tadqiq qilishning psixologik jihatlari .....	1698
<i>Amirova Nazokat Uroq qizi</i>	
Raqamli pedagogik muhitda vizual modellashtirish asosida Richpeace Cad dasturini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	1702
<i>Asrorova Saodat Abdullo qiz</i>	
Umumiy ta'lim maktablarida sun'iy intellektni qo'llash.....	1707
<i>Atabaeva Baxitli Jaxanshaevna</i>	



Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarida profilaktik muhitni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1710
<b>Bayjanov Babil Bahodirovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati.....	1715
<b>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda raqamli o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	1718
<b>Eshboeva Surayyo Qaxramon qizi</b>	
Maktabda steam loyihalari asosida o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish.....	1721
<b>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Turdiyeva Barchinoy Bobirovna</b>	
O'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonch hissi shakllanishida o'ziga bo'lgan munosabatning ta'siri.....	1726
<b>G'aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi</b>	
Trigonometrik funksiyalarning qo'shish formulalarini isbotiga doir masalalar.....	1731
<b>H. Tadjimatova</b>	
Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va islohatlar (1991–2024-yillar).....	1734
<b>Hafiza Botirova Ravshan qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1737
<b>Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</b>	
Ayollar uchun "shisha shift" sindromi: sabablari, oqibatlari va uni yengish strategiyasi.....	1740
<b>Karimova Maftuna Vohidovna</b>	
5-6 yoshlik bolalarda refleksiv tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar.....	1744
<b>Karshiyeva Shahnoza Turakulovna</b>	
O'zbekiston metodik maktabida sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili.....	1747
<b>Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertaklar orqali ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi.....	1752
<b>Madaminova Sarvigul Anvarxo'ja qizi, Qurbonova Baxtixon</b>	
Integratsiyalashgan ona tili fanining muammo va yechimlari.....	1755
<b>Mamarajabova Ozoda Zokir qizi</b>	
Maxmudxo'ja Behbudiy asarlarida ma'rifiy qadriyatlarning yoritilishi.....	1758
<b>Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna</b>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish.....	1763
<b>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kouching texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish.....	1766
<b>S. E. Kabulova</b>	
Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari.....	1772
<b>Shamuratov Marat Xalmuratovich</b>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining korporativ madaniyati xususiyatlari.....	1776
<b>Sherbo'tayeva Shoxsanam Usmonovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotini strategik boshqarish.....	1779
<b>Sultonova Shohida Muxtor qizi</b>	
Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitishda AI dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari.....	1783
<b>Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna</b>	
Turli yoshdagi sportchilarda uch hatlab sakrash texnikasini o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llari.....	1786
<b>Tashpulatov Farxad Alisherovich</b>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar.....	1791
<b>Turdiyev Azamat Gayratovich</b>	
Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari.....	1794
<b>Yusupova Xabiba Iriskulovna</b>	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari.....	1797
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi</b>	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению.....	1799
<b>Маханова Малика Жумабек кизи</b>	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО.....	1803
<b>Умурзакова Умида Наримановна</b>	



Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей ..... 1807 <b>Хуррамова Гузал Равшановна</b>	1807
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari ..... 1810 <b>Norov Nodir Jo'rayevich</b>	1810
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi ..... 1814 <b>Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi</b>	1814
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ..... 1818 <b>Xaqberdiyeva Sh. T.</b>	1818
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ..... 1823 <b>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</b>	1823
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri ..... 1826 <b>Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi</b>	1826
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish ..... 1829 <b>Nasiba Djumaniyozova Bekmamatovna</b>	1829
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni ..... 1833 <b>Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna</b>	1833
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir ..... 1836 <b>D. Teshaboyev, Z. Boymatova</b>	1836



# MAKTABDA STEAM LOYIHALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING IXTIROCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

Turdiyeva Barchinoy Bobirovna

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda maktab ta'lim jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi asosida o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda STEAM loyihalarining o'quvchilar tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari, texnik ijodkorlik va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish salohiyatiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Amaliy qismda maktab sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan loyihaviy topshiriqlar, konstruktorlik mashg'ulotlari, raqamli texnologiyalar va dizayn faoliyatini integratsiyalovchi metodlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari STEAM asosidagi o'quv faoliyatining o'quvchilarda kreativlik, ixtirochilik fikrlash, texnik madaniyat va jamoada ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samadorlikka ega ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** STEAM ta'limi, ixtirochilik faoliyati, texnik ijodkorlik, integrativ yondashuv, loyihaviy ta'lim, kreativ fikrlash, innovatsion g'oya, muammoli vaziyat, konstruktorlik ko'nikmalari, maktab ta'limi, texnologik kompetensiya, dizayn fikrlashi.

**Abstract:** This study examines the theoretical and practical foundations of developing students' inventive activity within the school educational process based on the STEAM approach (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics). The research provides a scientific analysis of the impact of STEAM projects on students' thinking, problem-solving skills, technical creativity and their capacity to generate innovative ideas. In the practical part, methods integrating project-based tasks, construction activities, digital technologies and design practices applicable in school settings have been developed. The study results show that STEAM-based learning activities are highly effective in fostering students' creativity, inventive thinking, technical culture and teamwork skills.

**Key words:** STEAM education, inventive activity, technical creativity, integrative approach, project-based learning, creative thinking, innovative idea, problem situation, construction skills, school education, technological competence, design thinking.

**Аннотация:** В данном исследовании изучены теоретические и практические основы развития изобретательской деятельности учащихся в школьном образовательном процессе на основе STEAM-подхода (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics). Проведен научный анализ влияния STEAM-проектов на развитие мышления учащихся, навыков решения проблемных ситуаций, технического творчества и способности к выработке инновационных идей. В практической части разработаны методы интеграции проектных заданий, конструкторских занятий, цифровых технологий и дизайнерской деятельности в условиях школы. Результаты исследования показывают, что STEAM-ориентированная учебная деятельность обладает высокой эффективностью в формировании у учащихся креативности, изобретательского мышления, технической культуры и навыков работы в команде.

**Ключевые слова:** STEAM-образование, изобретательская деятельность, техническое творчество, интегративный подход, проектное обучение, креативное мышление, инновационная идея, проблемная ситуация, конструкторские навыки, школьное образование, технологическая компетентность, дизайн-мышление.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, ijodkorlikka asoslangan faoliyat turlari va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida ko'rilmogda. XXI asrda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, texnika va texnologiyalar sohasidagi tezkor o'zgarishlar yosh avloddan mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, yangi g'oyalar yaratish va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini talab etadi. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning ijodiy va ixtirochilik salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmogda.

Dunyo ta'lim makonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi mazkur ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan eng samarali ta'lim modeli sifatida shakllangan. STEAM ta'limi fanga oid bilimlarni texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal etishga yo'naltiradi. Bu esa, o'z navbatida, ixtirochilik faoliyatini rag'batlantiradi, o'quvchilarda texnik tafakkur, ijodkorlik, konstruktorlik qobiliyati va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ham ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion metodlarni tatbiq etish, fan va texnologiyalarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarning kreativ va ixtirochilik ko'nikmalarini rivojlantirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktablarda STEAM yo'nalishidagi to'garaklar, laboratoriyalar, robototexnika xonalari tashkil etilmoqda, o'quvchilar uchun loyihaviy faoliyatga asoslangan fanlararo darslar yo'lga qo'yilmoqda.

Ushbu tadqiqot maktab sharoitida STEAM loyihalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, o'quvchilarning ixtirochilik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlarni tahlil qilish va taklif etishga qaratilgan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda STEAM ta'limining o'quvchilar tafakkuri va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. G'aniyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyati, ijtimoiy fikrlashi va fanlararo integratsiya asosida o'qitishning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Muallifning tabiiy fanlarni mediata'lim vositalari bilan o'qitish bo'yicha ishlari, xususan, fanlararo bog'liqlik, vizual materiallardan foydalanish va konstruktiv o'qitish yondashuvlari o'quvchilarda yangi g'oya yaratish va muammoni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatadi. Bu pedagogik yondashuvlar STEAM ta'limining asosiy tamoyillari bilan uyg'un bo'lib, ixtirochilik faoliyatining rivojlanishi uchun muhim metodik asos yaratadi.

Shuningdek, G'aniyeva tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda o'quvchilar tasavvurlari, tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish, mediata'lim orqali mavzuni chuqur anglatish va modellashtirish ko'nikmalarining o'sishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mediata'lim, fanlararo integratsiya va konstruktorlik faoliyatini uyg'unlashtirish bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalarda o'quvchilarning texnik tafakkuri va ijodiy tashabbuskorligini oshirishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan. Bu topilmalar STEAM loyihalarida qo'llaniladigan muhandislik fikrlashi, raqamli texnologiyalar bilan ishlash, modellashtirish va dizayn fikrlashi kabi qadriyatlarining maktab yoshidagi bolalar uchun yuqori samaradorlik berishini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, o'qitish jarayonida mediakompetentlikni shakllantirish, o'quvchilarni virtual muhitga olib kirish, amaliy faoliyatga yo'naltirish va konstruktorlik topshiriqlari asosida o'rgatish bo'yicha ilmiy ishlarda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, jamoaviy ishda ishtiroki, muloqot madaniyati va muammolarga innovatsion yondashuv ko'nikmalarining shakllanishi yoritilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar STEAM yondashuvining nafaqat texnik, balki kommunikativ, ijodiy va metata'limiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Bu esa maktabda ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishni ilmiy asoslash va metodik jihatdan takomillashtirish uchun mustahkam konseptual baza yaratadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM yondashuvi o'quvchilarning fanlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlovchi, kreativ fikrlash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan innovatsion model sifatida e'tirof etiladi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) konsepsiyasining asosiy g'oyasi – fanlar o'rtasidagi chegarani yo'qotish, ularni yagona tizimda uyg'unlashtirish hamda o'quvchini o'z tajribasi orqali o'rganishga undashdan iborat.

An'anaviy ta'lim ko'proq tayyor bilimlarni berishga asoslangan bo'lsa, STEAM yondashuvi bilimning amaliyotda qo'llanishi va yangi mahsulot yaratish jarayoniga urg'u beradi. Shu bois ushbu model o'quvchilarda ixtirochilik faoliyati, tadqiqotchilikka qiziqish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.

STEAM ta'limining pedagogik asosida quyidagi tamoyillar mavjud:

- fanlararo integratsiya tamoyili – turli fanlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ochib berish;
- konstruktorlik va muhandislik yondashuvi – texnik modellar yaratish orqali muammolarni hal etish;
- loyihaviy faoliyat tamoyili – o'quvchi ishtirokida yakuniy mahsulot yaratilishi;
- kreativ dizayn tamoyili – ijodkorlik, estetik qarash va dizayn fikrlashni shakllantirish;
- texnologik savodxonlik tamoyili – raqamli vositalardan ongli foydalanish.



Mazkur tamoyillar o'quvchilarning texnik tafakkuri va texnologik kompetensiyasini shakllantirib, ularni real hayotdagi muammolarni innovatsion yechimlar orqali hal etishga tayyorlaydi.

Ixtirochilik faoliyati o'quvchilarning kreativ tafakkuri, divergent fikrlash, farazlar ilgari surish va original g'oya yaratish kabi intellektual qobiliyatlarini talab etadi. Yosh davr psixologiyasiga ko'ra, 10–15 yosh oralig'i bolalarda texnik ijodkorlik va konstruktorlikka qiziqish eng faol rivojlanadigan bosqichdir. Shu sababli maktabda ixtirochilikni rivojlantirish mazkur yoshning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi.

Ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- motivatsiya – o'quvchining yaratuvchanlikka bo'lgan ichki qiziqishi;
- ijodiy muhit – erkin fikrlash va tajriba o'tkazishga imkon beruvchi pedagogik sharoit;
- amaliy faoliyat – qo'l bilan bajariladigan tajribalar, modellar yasash;
- qo'llab-quvvatlash – o'qituvchi tomonidan rag'bat va metodik yordam berilishi;
- muloqot va jamoaviy ish – guruhda fikr almashish va g'oyalarni birgalikda ishlab chiqish.

Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarda ixtirochilik salohiyati erta yoshdanoq mavjud bo'ladi, ammo uni rivojlantirish uchun qulay o'quv muhiti va to'g'ri pedagogik yondashuv zarur.

STEAM ta'limi aynan mazkur ehtiyojni qondiradi, chunki unda:

- o'quvchi markazda bo'ladi;
- o'quv jarayoni faol-amaliy xarakterga ega;
- qiziqarli tajribalar orqali o'rganish tashkil qilinadi;
- ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonga qo'shiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM yondashuvi o'quvchilarning fanlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlovchi, kreativ fikrlash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan innovatsion model sifatida e'tirof etiladi. STEAM konsepsiyasining asosiy g'oyasi – fanlar o'rtasidagi chegarani yo'qotish, ularni yagona tizimda uyg'unlashtirish va o'quvchini o'z tajribasi orqali o'rganishga undashdan iborat.

An'anaviy ta'lim ko'proq tayyor bilimlarni berishga asoslangan bo'lsa, STEAM yondashuvi bilimning amaliyotda qo'llanishi va yangi mahsulot yaratish jarayoniga urg'u beradi. Shu sababli ushbu model o'quvchilarda ixtirochilik faoliyati, tadqiqotchilikka qiziqish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishda juda samaralidir.

Ixtirochilik faoliyati o'quvchilarning kreativ tafakkuri, divergent fikrlash, farazlar ilgari surish va original g'oya yaratish kabi intellektual qobiliyatlarini talab etadi. Yosh davr psixologiyasiga ko'ra, 10–15 yosh oralig'i bolalarda texnik ijodkorlik va konstruktorlikka qiziqish eng faol rivojlanadigan bosqichdir. Shu sababli maktabda ixtirochilikni rivojlantirish mazkur yoshning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi.

Ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishda muhim omillar:

- motivatsiya,
- ijodiy muhit,
- amaliy faoliyat,
- qo'llab-quvvatlash,
- jamoaviy muloqot.

Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarda ixtirochilik salohiyati tabiiy ravishda mavjud bo'ladi, ammo uni rivojlantirish uchun qulay o'quv muhiti, metodik yondashuv va tizimli faoliyat zarur.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida maktab ta'lim jarayoniga STEAM yondashuvini integratsiyalash orqali o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borildi. Ushbu jarayon natijalari sifat va miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi.

- *Birinchi*dan, tajriba–sinov jarayonida STEAM loyihalari bilan muntazam shug'ullangan o'quvchilarda kreativ fikrlash, muammo qo'yish va yechim topish ko'nikmalarining sezilarli oshgani aniqlandi. Dastlabki diagnostika natijalarida o'quvchilar texnik masalalarni hal qilishda asosan tayyor namunaviy yo'llardan foydalanar edi. Tajribadan so'ng esa ularda muammoni bir nechta nuqtai nazardan ko'ra bilish, alternativ g'oyalarni ilgari surish, prototip yaratish va uni takomillashtirish kabi faoliyatlar 2–2,5 baravar oshgani kuzatildi.

- *Ikkinchidan*, STEAM loyihalarida ishtirok etgan o'quvchilarning texnik savodxonlik darajasida ham ijobiy o'sish kuzatildi. O'quvchilar sodda mexanik qurilmalarni yig'ish, elektr zanjirlarini ulash, modellashtirish dasturlaridan (Tinkercad, Scratch, 3D Builder va h.k.) foydalanish, loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish kabi amaliy ko'nikmalarni puxta o'zlashtirdi. An'anaviy usullarda o'qitilgan nazorat guruhi o'quvchilari esa texnik topshiriqlarni bajarishda ko'proq o'qituvchi ko'magiga tayanishi kuzatildi.
- *Uchinchidan*, STEAM loyihalari o'quvchilarning kommunikativ madaniyati va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirdi. Guruhlardagi loyihaviy faoliyatda o'quvchilar fikrini asoslash, o'z g'oyasini himoya qilish, boshqalarning takliflarini tahlil qilish va o'zaro murosaga kelish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni namoyon qila boshladi. Tadqiqot boshlanishida jamoaviy ishda passiv bo'lgan o'quvchilar tajriba oxiriga borib faol tashabbus ko'rsata boshlaganligi qayd etildi.
- *To'rtinchidan*, o'quvchilarning ixtirochilik motivatsiyasi sezilarli darajada kuchaydi. Tadqiqot davomida 40 dan ortiq kichik prototiplar, modellar, ekologik, texnologik va robototexnik yo'nalishdagi ijodiy ishlanmalar yaratildi. O'quvchilarning mustaqil ravishda loyiha mavzusini tanlashi, resurslarni izlab topishi, sinovlar o'tkazishi va natijalarni taqdim etishi ularning ijodiy tashabbuskorligini oshirganini ko'rsatdi. Bu esa STEAM yondashuvining o'quvchilarda ixtirochilik faoliyatini shakllantirishdagi amaliy samaradorligini isbotlaydi.
- *Beshinchidan*, o'quv jarayonida dizayn fikrlashi (Design Thinking) bosqichlaridan foydalanish o'quvchilarning texnik g'oyalarni tizimli ishlab chiqish qobiliyatini mustahkamladi. Empatiya, muammoni aniqlash, g'oya yaratish, prototiplash, sinovdan o'tkazish kabi jarayonlar o'quvchilarda mantiqiy ketma-ketlikda fikrlash, ob'ektning funksionalligini baholash va talabga moslashtirish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, STEAM asosidagi o'qitish modeli nafaqat texnik bilimlarni, balki o'quvchilarning shaxsiy va metata'limiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. O'quvchilar o'z ustida ishlashga, qiziqishlarini amaliyotga tatbiq etishga, yangi g'oyalarni yaratishga, ularni sinab ko'rishga va takomillashtirishga intila boshladi.

Nazorat va tajriba guruhlarini yakuniy natijalari o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli bo'lib, STEAM loyihalari asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyati o'quvchilarning ixtirochilik salohiyatini 30–45% gacha oshirganini ko'rsatdi. Bu esa tadqiqot g'oyasining amaliy samaradorligi yuqori ekanini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot maktab ta'limida STEAM loyihalarini qo'llash orqali o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan nazariy izlanishlar, tajriba–sinov ishlari, monitoring natijalari va kuzatuvlar asosida quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi.

- *Birinchidan*, STEAM yondashuvi o'quvchilarni fanlararo integratsiya asosida o'qitish imkonini berib, ularning nazariy bilimlari bilan amaliy faoliyatini uyg'unlashtiradi. O'quvchilar ilmiy bilimlarni texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan bog'lab o'rganishi natijasida murakkab masalalarni hal etishda tizimli yondashuvni qo'llay oladi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv va texnik tafakkur kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.
- *Ikkinchidan*, tajriba jarayonida STEAM asosidagi loyihalar bilan ishlagan o'quvchilarda ixtirochilik faoliyati sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Ular muammoni aniqlash, g'oya yaratish, prototip loyihalash va uni sinovdan o'tkazish kabi jarayonlarda yuqori faollik namoyon qildi. Bu esa STEAM yondashuvining ixtirochilik fikrlashni shakllantirishdagi amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.
- *Uchinchidan*, o'quvchilar tomonidan yaratilgan kichik ixtirolar, modellar, konstruktorlik ishlari, robototexnik loyihalar ta'lim jarayoniga kreativlik va amaliy yo'nalish olib kiradi. Bunday faoliyat o'quvchilarda ijodiy tashabbus, izlanish, texnologik savodxonlik, mustaqil qaror qabul qilish va konstruktorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu ko'rsatkichlar o'z navbatida ularning ixtirochilik madaniyatiga asos bo'ladi.
- *To'rtinchidan*, STEAM yondashuvi o'quvchilarning faqat texnik bilimlarini emas, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishi aniqlandi. Loyiha davomida o'quvchilar bir-biri bilan hamkorlik qildi, guruhlarda ishlashni, vazifalarni taqsimlashni, jamoa ichida mas'uliyatni his qilishni, fikrni asosli bayon qilishni o'rgandi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan kommunikativ, jamoaviy va liderlik qobiliyatlarining shakllanishiga xizmat qildi.
- *Beshinchidan*, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM loyihalari asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan o'quvchini ko'proq jalb etadi, ularning ichki motivatsiyasini, qiziqishini, izlanishga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. O'quvchilar o'zlari yaratgan mahsulotni ko'rish orqali ta'limga nisbatan ijobiy emosional munosabat shakllantiradi.



- *Oltinchidan*, o'tkazilgan qiyosiy tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, STEAM asosida o'qitilgan o'quvchilarning ixtirochilik salohiyati 30–45% gacha oshgan. Bu ko'rsatkich mazkur yondashuvning ta'lim tizimi uchun yuqori samaradorlikka ega ekanini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot maktablarda STEAM loyihalaridan foydalanish o'quvchilarda nafaqat texnik–texnologik bilimlarni, balki ixtirochilik, kreativlik, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada ishlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida STEAM yondashuvini boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida keng joriy etish, loyihaviy mashg'ulotlar sonini ko'paytirish, raqamli texnologiyalar va konstruktorlik vositalarini ta'lim jarayoniga faol tatbiq etish lozimligi aniqlangan.

Tadqiqot yakunlari shuni ko'rsatadiki, STEAM loyihalari asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlash, texnik tafakkurini rivojlantirish, innovatsion fikrlashga yo'naltirish va ularning ixtirochilik salohiyatini oshirishning samarali mexanizmidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aniyeva G.I. Ijtimoiy fikrlash, uning tarkibiy tuzilmasi va uni rivojlantirish imkoniyatlari // Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal. – Toshkent, 2024. – №21. – B. 196–198. (13.00.00 OAK Rayosatining 2023–yil 3–iyundagi 338/5–son qarori).
2. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni mediata'lim vositalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (III–sinflar misolida) // O'zMU Xabarlari. – Toshkent, 2023. – №1.8.1. – B. 90–92. (13.00.00. №15).
3. G'aniyeva G.I. III–sinf o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy–ma'rifiy, ilmiy–uslubiy jurnal. – Toshkent, 2023. – №5. – B. 75–78. (13.00.00. №18).
4. G'aniyeva G.I. III–sinf o'quvchilarida ijtimoiy fikrlashni fanlararo mediata'lim vositalari asosida shakllantirishning holati // Ta'lim, fan va innovatsiya. – Toshkent, 2023. – №5. – B. 214–217. (13.00.00. №18).
5. G'aniyeva G.I. III–sinf o'quvchilarida “Tabiiy fanlarga” oid tushunchalarni mediata'lim vositalari asosida shakllantirish // Tafakkur ziyosi. Ilmiy–uslubiy jurnal. – Toshkent, 2023. – №3. – B. 164–167. (13.00.00. №29).
6. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan mediata'limning maqsad va vazifalari // ILM sarchashmalari. Urganch davlat universiteti ilmiy–nazariy, metodik jurnali. – Urganch, 2023. – №9. – B. 119–121. (13.00.00. №31).
7. G'aniyeva G.I. III–sinf o'quvchilarida ijtimoiy fikrlashni fanlararo mediata'lim vositalari asosida shakllantirish metodikasi // Intereduglobalstudy.com, ilmiy–nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2024. – №8. – B. 325–332. (13.00.00 OAK Rayosatining 2024–yil 31–yanvardagi 350–son qarori).
8. G'aniyeva G.I. Formation of 3rd class students' imagination and concepts about nature // Miasto Przyszlosci. – Vol. 39, №09(2023). – P. 27–29. (SJIF: 6.567; Impact Factor: 9.2).
9. G'aniyeva G.I. Formation of Media Literacy in teaching natural science in primary grades // International Journal on Integrated Education. – Vol. 6, №9(2023). – P. 16–19. (Impact Factor: 7.6; SJIF: 5.587).
10. G'aniyeva G.I. The role of international research in teaching Natural Sciences in primary grades // International Journal on Integrated Education. – Vol. 6, №9(2023). – P. 12–15. (UIF: 8.4; SJIF: 7.1).
11. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni takomillashtirishda mediata'limning o'rni // EJMNS: Eurasian Journal of Social Science, Philosophy and Culture. – Vol. 3, №09(2023). – P. 18–22. (UIF: 8.3; SJIF: 5.995).
12. G'aniyeva G.I. Роль медиаобразования в повышении медиаграмотности учащихся начальных классов // EJMNS Research Focus. – Vol. 3, №09(2023). – С. 11–12. (UIF: 8.3; SJIF: 4.597).
13. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan mediata'limning tuzilishi // Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences – EJMNS. – Vol. 3, №09(2023). – P. 7–12. (UIF: 8.3; SJIF: 5.995).
14. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy fikrlashini mediakompetentlik asosida rivojlantirish yo'llari // Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research. – Vol. 01, Issue 07, 2024. – B. 177–181.
15. G'aniyeva G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchisining atrof–muhitni o'rganish jarayoni // Экономика и социум. – Rossiya, 2023. – №9(112). – С. 114–116.
16. G'aniyeva G.I. III–sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni virtual muhitga olib kirish // Academic Research in Modern Science. International Scientific Online Conference. – AQSh, 2023. – B. 114–117.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.